



SEMANTIK MAYDON TUSHUNCHASI VA 'VAQT' SEMANTIK MAYDONI TADQIQI

Farg'ona Davlat Universiteti

Filologiya fanlari dotsenti

Umarova Nargiza

Farg'ona Davlat Universiteti

Ingliz tili kafedrası oqituvchisi

Karimova Shahloza

Farg'ona Davlat Universiteti,

Lingvistika, ingliz tili 2-kurs magistranti

Mamatkulova Xurshidabonu Anvarjon qizi

mamatkulovakhurshida@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola semantik maydon va vaqt konsepti haqida batafsil ma'lumot beradi. Maqola vaqt so'zining izohli lug'ati bilan ham tanishtirib, o'zbek tilidagi bir nechta ma'noviy birliklarini tahlil qiladi. Shuningdek, "vaqt" konseptining semantik jihatlarini yoritib o'tadi va bu bo'yicha turli namunalar keltiriladi. Nazariyalar misollar orqali yoritiladi.

Kalit so'zlar: konsept, semantika, maydon, semantik maydon, vaqt, fraza, maqollar, ma'no.

Qariyb 7.000 dan ortiq tillarga ega bo'lgan hozirgi zamonaviy dunyomizning tilshunoslik sohasida deyarli o'rganilmagan soha qolmadi. Masalan, maydon nazariyasi ham tilshunoslikda bugun paydo bo'lib qolgan g'oya emas, shu sababli, u bo'yicha jahon tilshunosligida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Shuning uchun ham, "Maydon va uning mohiyati nima?" degan savolga hozirgi zamonaviy tilshunosligimizdagi qarashlar va javoblar turlicha.



Maydon tushunchasi aslida fizika sohasida paydo bo'lgan bo'lib, "fizik hodisa voqealanadigan yoki uning ta'siri paydo bo'ladigan fazo"¹ sifatida izohlanadi.

Tilshunoslikda esa "maydon" quyidagicha talqin qilinadi. Ya'ni biz maydon so'zini semantika bilan bog'liq holda talqin qilamiz. Bu ikkala so'z "semantik maydon" tarzida talqin etiladi.

Tilshunoslikda semantikaning asosiy vazifasi ma'nolari bilan bog'langan so'zlarni birlashtiradi. Bunday so'zlar, odatda bir leksik – semantik guruhni tashkil qiladi.

Jumladan,

rang bo'yoqni bildiruvchi so'zlar – oq, qora, pushti

vaqtni bildiruvchi so'zlar – peshin, shom, sahar, namozshom vaqti

harakat – holatni ifodalovchi so'zlar – tez, sekin, sokin, asta

kulguni ifodalovchi so'zlar - jilmaymoq, ishshaymoq, tabassum qilmoq, tirjaymoq, xoxolamoq, kulmoq kabilar.

Ular alohida semantik maydonga egadir.

A. Ufimseva semantik maydon nazariyasi va uning lug'at tarkibini tahlil qilishdagi imkoniyatlarini yoritdi. Maydon nazariyasi bo'yicha maxsus fikr bildirgan B. Yo'ldoshev "XIX asrga kelib fizikadagi maydon nazariyasi ta'sirida tilshunoslikda ham maydon tushunchasining nazariy talqini yuzaga kelgan va tilshunoslikda asosan mazmuniy maydon sifatida ro'yobga chiqqan"² ligini takidlaydi. Dastlab maydon nazariyasi tilning leksik sathida o'rganilib, tezauruslar yaratish, ideografik lug'atchilik amaliyoti uchun xizmat qilgan.

Lingvistikada "ma'no" (mazmun) umumiyligi bilan birlashgan va belgilanayotgan hodisalarning tushunchaviy, predmetlik yoki vazifaviy (funksional) o'xshashlikni aks ettiruvchi til birliklari (asosan, leksik birliklar) yig'indisi maydon sifatida belgilanadi.³

Ma'lumki, tilshunoslikka "semantik maydon" termini nemis tilshunosi G. Ipsen tomonidan kiritilgan. Olim semantik maydonni belgilashda so'zlarning nafaqat leksik, balki grammatik umumiyligiga ham suyanib ish ko'rdi, ya'ni so'zlar bir semantik

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati T 2-Toshkent: O'zbekiston Ensiklopediyasi (2006,228-bet).

² Yo'ldashev B. Maydon nazariyasining tilshunoslikka ta'siri haqida. O'zbek filologiyasi masalalari (ilmiy maqolalar to'plami) Navoiy,2001.-43,-44 betlar.

³ —Лингвистический энциклопедический словарь. М. Советская энциклопедия.1990.380с.



maydonga kirishi uchun umumiy ma'nogo ega bo'lishidan tashqari bir so'z turkumiga mansub bo'lishi zarur. Shu tariqa G. Ipsen ishlarida u yoki bu so'zni bir guruhga birlashtirishda til faktorlari — morfologik shakllar mezon bo'lishi to'g'risidagi qarashlar o'z ifodasini topdi. Xususan, G. Ipsen o'zining maxsus maqolasida so'z semantik maydonini uning morfologik shakllariga qarab belgilash zarurligi haqidagi fikrni ilgari surgan.

Demak, semantik maydon tushunchasi bilan yetarlicha tanishib oldik. Vaqt konsepti nima va uning tilshunoslikdagi ahamiyati qanday?

O'zbek tilining izohli lug'atiga ko'ra vaqt bu-

Yuz berib turuvchi voqea-hodisa, narsalarning asrlar, yillar, soatlar, minutlar va shu kabilar bilan o'lchanadigan davomiyligi, shunday o'lchov belgisiga ega bo'lgan obyektiv hodisa.

Masalan: *Vaqt g'oyat imillab o'tardi. Hamma xavotirlanib bezovta bo'la boshladi.* (Yashin, Hamza)

Biroq, vaqt deyilganida faqat bir ma'no tushunilmaydi. Vaqtning semantik turlari tilshunoslikda talaygina.

Misol uchun:

Hozirgi vaqt: hozir, ayni payt, hozirda, shu vaqtda, hozirning o'zida

U birov bilan shaxmat o'ynar va, ayni vaqtda, yigirmaga yaqin odamni og'ziga qaratib, kuldirib o'tirar edi. (A. Qahhor, Quyushqon)

O'tmish vaqti: kecha, ilgari kun, o'tmishda, bir vaqtlar, ilgarilari, o'tgan vaqtlarda

Uning o'zi bir vaqtlar Rustamni yaxshi ko'rardi. (O'. Hoshimov, Qalbingga quloq sol)

Kelajak vaqti: ertaga, vaqti kelib, kelajakda

Bu qishloqda o'sadigan bolalar bir vaqti kelib, ehtimol, bizning ko'p ishlarimizdan kulishar. (A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari)

Kun qismlari vaqtlari: tong, sahar, kunduz, tun, yarimtun

Vaqt saharga yaqin, tevarak-atrofdagi xo'rozlar ketma-ket qichqirishardi. (A. Qodiriy, O'tgan kunlar)

Namoz vaqtlari: bomdod, peshin, asr, shom, hufton vaqtlari



Besh vaqt namozni kanda qilmasdan o'qiydi, ixlos bilan ro'za tutadi. (Oybek, Tanlangan asarlar)

Takrorlanuvchi vaqtlar: doim, hamisha, tez-tez, ba'zan, ba'zida, bir-bir, ko'pincha, aksar vaqti

Avaz yozda., bog'-hovliga chiqib ketar, ko'llarga borib, baliq ovlar, aksar vaqti ijod bilan band bo'lar edi. (S. Siyoyev, Yorug'lik)

Garchi vaqt so'zining sinonim va ma'nodoshlari juda ko'p bo'lsa-da (davr, payt, lahza, on, zamon, mavsum), vaqt so'zi yuqoridagi semantik ma'nodagi so'zlar uchun umumiy so'z sifatida xizmat ko'rsatadi.

Shuningdek, so'zlarga boy bo'lgan o'zbek tilimizda vaqt konseptiga oid bo'lgan iboralar va maqollar ham yetarlicha.

Vaqtni qo'ldan bermoq, vaqtdan yutmoq, vaqtdan yutqazmoq, vaqtning o'tib ketishi, vaqtning uchib ketishi kabi frazalar;

Vaqting ketdi-naqding ketdi

Vaqt oqar daryo.

Har bir narsaning davosi vaqt.

Jo'jani kuzda sanaymiz kabi maqollar bunga yorqin misol bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda vaqt konsepti juda keng ma'noda tahlil qilinishi mumkin bo'lib, garchi tilshunoslikda juda ko'p marta o'rganilganiga qaramay, ushbu mavzuning hali ochilmagan qirralari juda ko'p.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Yo'ldashev B. Maydon nazariyasining tilshunoslikka ta'siri haqida. O'zbek filologiyasi masalalari (ilmiy maqolalar to'plami) Navoiy, 2001.-43,-44 betlar.
2. Лингвистический энциклопедический словарь. М. Советская энциклопедия. 1990. 380с.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati T 2-Toshkent: O'zbekiston Ensiklopediyasi (2006)
4. Ufimseva A.A. Teorli «Семантического поля» и возможности их применения при изучении словарного состава языка. Вопросы теории языка и современной зарубежной лингвистике: т 1961. – с.30.